



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI HAZORASP TUMANI KENGASHI QARORI

220700, Hazorasptumani, E.Gayazovko‘chasi, 32-uy, telefon: (62)33-25-579; faks: (62)33-25-579

2023 - yil 29 - dekabr

VI-126-235-12-174-K/23

Hazorasp tuman hokimligi

## Hazorasp tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, "2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida"gi O‘RQ-886-sonli qonuniga muvofiq va xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 28 dekabrda “Xorazm viloyatining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-190-12-0-K/23–sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 26 dekabrda 01-01--38/1685-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023 yil 28 dekabrda “Xorazm viloyatining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023 yil 28 dekabrda “Xorazm viloyatining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Hazorasp tuman mahalliy budjetining 2024 yil uchun daromadlari 99249,5 mln.so‘m, xarajatlari 191229,2 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan transfertlar 91979,7 mln.so‘m shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar 34866,4 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun Hazorasp tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yil uchun Hazorasp tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024 yil uchun Hazorasp tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024 yil uchun Hazoarsp tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024 yil uchun Hazorasp tuman mahalliy budjeti zahira jamg'armasi hajmlari 1697,1 mln.so'm miqdorida belgilansin.

9. 2024 yil uchun Hazorasp tuman mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 28 dekabrda "Xorazm viloyatining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq 2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulknii ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq; davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig'i bo'yicha tushumlar tegishincha 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman budjeti o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladigan qo'shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

12. Hazorasp tuman soliq inspeksiyasi xarajatlari hamda tuman xalq qabulxonasini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish 2024 yildan republika budjetidan tuman mahalliy budjetiga o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

13. Hazorasp tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Ro'zimov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Sh.Xo'janioyov), soliq inspeksiyasi (F.Yo'ldoshev) mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga

alohida e'tibor qaratsin.

14. Soliq inspeksiyasi (F.Yoldoshev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishga;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazishga;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Soliq inspeksiyasi (F.Yoldoshev), Kadastr agentligi Hazorasp tuman bo'limi (X.Sadullayev) 2024 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

16. Soliq inspeksiyasi ((F.Yoldoshev), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini

doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Majburiy ijro byurosi Hazorasp tuman bo‘limi (D.Satimov), soliq inspeksiyasi (F.Yoldoshev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18. Hazorasp tuman kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (T.Quryozov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Ro‘zimov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini «e-ijro auktsion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

20. Tuman shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Ro‘zimov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob‘ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob‘ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralari ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. Irrigatsiya tizimi bo‘limi (S.Matqurbanov) va tuman soliq inspeksiyasi (F.Yuldoshev) tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalarini tomonidan iste‘mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilsin.

22. Hazorasp tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Xo‘janioyov):

budjet intizomiga qat‘iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

23. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas‘ul etib belgilansin.

24. Hazorasp tuman hokimligi:

Tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Hazorasp tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas‘ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan ob‘ektlar

ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Hazorasp tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Ro'zimov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

27. Mazkur qaror "Hazoraspnoma" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda Hazorasp tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Ro'zimov hada xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi Q.Nazarov zimmalariga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi**



**Z.Abdirimov**

Xalq deputatlari Hazorasp tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-126-235-12-174-K/23-son  
qaroriga  
1-ilova

**2024 YIL UCHUN HAZORASP TUMANI BO'YICHA  
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING REJA KO'RSATKICHLARI**

	<b>Daromad turlari</b>	<b>ming. so'm</b>
1	Aylanmadan olinadigan soliq	12 205 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	31 209 500
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	3 992 000
4	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	15 577 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 904 000
7	Yuridik shaxslarning yer soliq	7 636 000
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 236 000
9	Jismoniy shaxslarning yer soliq	9 668 000
10	Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	17 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 630 000
12	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	175 000
	<b>JAMI</b>	<b>99 249 500</b>



Xalq deputatlari Hazorasp tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-126-235-12-174-K/23-son  
qaroriga  
2-ilova

## Hazorasp tuman mahalliy budjetining 2024 yilgi asosiy xarajat ko'rsatkichlari

ming so'mda

Ko'rsatkichlar		Miqdori
	<b>XARAJATLAR-JAMI</b>	<b>191 229 225</b>
<b>1.</b>	<b>IJTIMOY SOHA VA AHOLINI IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI</b>	<b>128 143 682</b>
	shu jumladan:	
<b>1.1</b>	Ma'orif	28 113 854
	- maktabgacha ta'lim	13 790 203
	- umumiy ta'lim	14 323 651
<b>1.2</b>	Sog'liqni saqlash tashkilotlari	93 001 887
<b>1.3</b>	Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 959 062
<b>1.4</b>	Sport	4 882 220
<b>1.5</b>	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam pakyeti»	27 600
<b>1.6</b>	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	159 059
<b>2</b>	<b>IQTISODIYOTGA XARAJATLAR</b>	<b>18 478 780</b>
<b>2.1</b>	Fermerlar xo'jaliklari buxgalyeriya markazlari	256 235
<b>2.2</b>	Obodonlashtirish	8 637 999
<b>2.3</b>	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	4 000 000
<b>2.4</b>	Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	1 336 325
<b>2.5</b>	Veterinariya qo'mitasi tashkilotlari	2 066 221
<b>2.6</b>	"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari	2 182 000
<b>4.</b>	<b>DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINI SAQLASH</b>	<b>23 091 158</b>
<b>4.1</b>	Davlat boshqaruv idoralari	23 091 158
<b>5.</b>	<b>Zahira jamg'armasi</b>	<b>1 697 136</b>
<b>6.</b>	<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</b>	<b>19 818 469</b>

Xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-126-235-12-174-K/23-son qaroriga  
3-ilova

**Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me'yorlari**

*Foiz hisobida*

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi dyeklaraniyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar
1	Hazorasp tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Hazorasp tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-126-235-12-174-K/23-son  
qaroriga  
4-ilova

**Mahalliy budjetlarning 2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy  
hajmi**

ming so'mda

<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
Hazorasp tumani	99 249 500,0	191 229 225,0

Xalq deputatlari Hazorasp tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-126-235-12-174-K/23-son  
qaroriga  
5-ilova

**Hazorasp tuman mahalliy budjetlarining 2024 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan  
transfertlar miqdorlari**

*ming so'mda*

<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Transfert miqdori</b>	<b>shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratilgan mablag'lar*</b>
Hazorasp tumani	91 979 725,0	34 866 408,0

\*tamaki, alkagol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar

Xalq deputatlari Hazorasp tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-126-235-12-174-K/23-son  
qaroriga  
6-ilova

**Hazorasp tuman mahalliy budjetlarida yo'l qo'yiladigan eng kam  
mablag'lar miqdori**

**ming so'mda**

<b>T/r</b>	<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Miqdor</b>
1	Hazorasp tumani	941 000,0